

"O'ZBEKISTON 2030" STRATEGIYASI USTUVOR YO'NALISHLARI VA MAQSADLARI VA TARAQQIYOT KAFOLATI SIFATIDA

*Ilmiy rahbar: Shakirova Nigora Axralovna,
TMI, "Statistika va ekonometrika" kafedrası v.b.dotsent
Davurboyev Elyor Olimjon o'g'li
Toshkent moliya instituti Iqtisodiyot fakulteti IBI-
71 guruh talabasi*

Annotatsiya. Ushbu tezida O'zbekistonda raqamlashtirishni rivojlantirish, yangi zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, nou-houlardan foydalanish, malakali kadrlarni bu sohalarga jalb etish haqida ma'lumot va xulosalar berilgan bo'lib, bu iqtisodiyot va moliya sohasini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, internet tarmog'i.

Bugungi kunda barcha rivojlangan mamlakatlar o'rtasida raqamlashtirilgan iqtisodiy va moliyaviy tizimga mutloq o'tishi, aholining iqtisodiy va ijtimoiy hayotini yaxshilash, iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan ko'plab dolzarb muammolarning yechimini topishga hamda shu bilan birgalikda to'liq raqamlashtirish esa inson omilini kamaytirgan holda korrupsiyaga chek qo'yish va yanada iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi uchun poydevor vazifasini bajarmoqda. Buning uchun ko'plab mamlakatlarda axborot resurslari markazi yoki raqamli davlat xizmatlari tashkil etilgan va zamonga hamnafas ravishda so'nggi texnologiyalar bilan takomillashtirilmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa elektron tijorat, masofaviy ta'lim hamda onlayn platformalarni yaratish kabi sohalar biznesni raqamlashtirishda yuqori darajada qo'llab quvvatlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamlashtirish, raqamli infratuzilmani yaratish masalasi dolzarb kun tartibiga chiqqanligi sababli mamlakatimiz rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kirgan holda barcha sohalarni, jumladan tibbiyot, ta'lim, iqtisodiy va moliyaviy tizimlar va boshqa soha sektorlarida raqamlashtirishni joriy etish va takomillashtirish uchun bir necha loyihalar va strategik vazifalarni rejalashtirmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasi va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079 sonli farmoni ham aynan shu maqsadda qabul qilingan.

Farmonda bir qator ustuvor vazifalar belgilangan bo'lib, ular jumlasiga:

- Aholi punktlarini Internet tarmog'iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portallarini 2,5 milliongacha ko'paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa

liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 foizdan 95 foizga yetkazish;

- Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etish;
- 587 ming nafar kishini, shu jumladan “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o‘qitish tashkillashtirish;
- Hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish uchun tegishli oliy ta’lim muassasalari biriktirish hamda ularning 12 ming nafar xodimi axborot texnologiyalari sohasida o‘qitish.

Mamlakatimizda mazkur farmon asosida rejalashtirilgan startegik vazifalar amalga oshirilmoqda. Shu xususida AKTga katta e’tibor qaratilmoqda. Ma’lumki, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish iqtisodiyotni raqamlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Jumladan yuqoridagi qarorlarning amaldagi natijasi sifatida to’lov tizimida kommunal xizmatlaridan foydalanishda hisob-kitobni amalga oshirishda turli xil smart texnologiyalaridan foydalanish va shu bilan birgalikda bu xizmatlarni yanada takomillashtirish va boshqarish uchun “aqli uy” kabi tajribalarni yo’lga qo’yish, jamoat transportlarida esa avtomatlashtirilgan tizimni joriy etish va naqd pulsiz to’lovlar tizimni amalga oshirish, sug‘urta tizimini raqamlashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida raqamli sug‘urtani amalga oshirish mexanizmlarini joriy etilishi, iqtisodiyotning real sektorlarida robotlashtirilgan texnikalardan foydalanish va yirik korxonalarda robotexnika va kuchli IT muxandislarini jalb etilishi kuzatilmoqda.

1-jadval

O‘zbekiston hududida korxonalar va tashkilotlarda internetga ulangan kompyuterlar soni

| t/r | Hududlar | 2017 yil | 2018 yil | 2019 yil | 2020 yil | 2021 yil |
|-----|-------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|
| 1 | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 12 594 | 15 431 | 17 788 | 21 882 | 28 666 |
| 2 | Andijon viloyati | 11 972 | 14 699 | 17 830 | 20 173 | 19 924 |
| 3 | Buxoro viloyati | 14 073 | 16 041 | 19 513 | 23 101 | 27 573 |
| 4 | Jizzax viloyati | 12 822 | 14 200 | 14 822 | 9 251 | 21 025 |
| 5 | Qashqadaryo viloyati | 13 179 | 14 857 | 18 006 | 18 631 | 22 960 |
| 6 | Navoiy viloyati | 11 190 | 14 490 | 17 686 | 18 246 | 39 367 |
| 7 | Namangan viloyati | 10 499 | 13 800 | 17 292 | 20 408 | 14 509 |
| 8 | Samarqand viloyati | 23 569 | 26 955 | 32 001 | 33 970 | 12 753 |

| | | | | | | |
|----|----------------------|---------|---------|---------|---------|---------|
| 9 | Surxondaryo viloyati | 6 907 | 8 611 | 9 323 | 8 840 | 45 031 |
| 10 | Sirdaryo viloyati | 5 488 | 6 327 | 7 849 | 10 245 | 32 638 |
| 11 | Toshkent viloyati | 18 371 | 23 393 | 29 228 | 36 050 | 20 297 |
| 12 | Farg'ona viloyati | 15 489 | 18 449 | 21 508 | 27 590 | 207 782 |
| 13 | Xorazm viloyati | 9 410 | 11 962 | 14 811 | 17 600 | 538 933 |
| 14 | Tosheknt shahri | 144 896 | 158 788 | 175 760 | 175 926 | 20 297 |
| | Respublika bo'yicha | 310 459 | 358 003 | 413 417 | 441 913 | 538 933 |

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarda internetga ulangan kompyuterlar soni barcha Respublika hududlarida o'sish tendensiyasini namoyish etgan. Bunga ko'ra Jizzax viloyati hududida joylashgan korxonalar va tashkilotlarda internetga ulangan kompyuterlar soni 2020 yilda 9251 tani tashkil etib o'tgan yilga nisbatan bu ko'rsatkich pasaygan bo'lsada, 2021-yilda 19 924 tani tashkil etgan. Bunga sabab "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasida Janubiy koreyalik hamkorlar bilan birgalikda 11 million dollarga teng, yillik quvvati 50 ming kilometr optik tolali kabel mahsulotlarini ishlab chiqarish zavodi ishga tushirilganidir.

Bundan tashqari Toshkent viloyati va Toshkent shahrida 2021-yilda korxonalarda internet aloqalariga ulangan kompyuterlar soni 45 031 va 206 782 taga yetgan bo'lib, bunga sabab 2021-yil davomida ikki mingta qo'shimcha mobil aloqa baza stansiyasini o'rnatish orqali ularning umumiy soni 33,7 mingtaga, aholi maskanlarida keng polosali mobil internet qamrovi darajasi 95 foizgacha oshirilganligidir. Shu bilan birgalikda 2021-yil yakuniga qadar nafaqat poytaxt hududida balki mamlakatimiz hududining Nukus, Urganch, Namangan, Qarshi, Termiz va Toshkent shaharlarida ham IT-park filiallari faoliyati yo'lga qo'yilganligi tufayli, bu viloyatlarda turli xil tashkilotlarda internet aloqalariga ulangan texnikalarning tez fursatda ko'payishiga sabab bo'lgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan korxonalar va tashkilotlarda shaxsiy kompyuterlarning (serverlardan tashqari) soni

| t/r | Hududlar | 2017 yil | 2018 yil | 2019 yil | 2020 yil | 2021 yil |
|-----|-------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|
| 1 | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 41 125 | 45 483 | 50 945 | 53 251 | 55 510 |
| 2 | Andijon viloyati | 46 409 | 48 895 | 54 530 | 56 344 | 53 842 |
| 3 | Buxoro viloyati | 41 003 | 45 294 | 51 280 | 55 888 | 56 058 |
| 4 | Jizzax viloyati | 25 854 | 26 976 | 28 867 | 18 887 | 34 016 |
| 5 | Qashqadaryo viloyati | 59 141 | 64 395 | 67 670 | 62 434 | 74 842 |
| 6 | Navoiy viloyati | 35 646 | 40 031 | 44 562 | 46 708 | 48 364 |
| 7 | Namangan viloyati | 42 643 | 47 299 | 52 800 | 55 071 | 57 102 |
| 8 | Samarqand viloyati | 69 606 | 79 084 | 87 599 | 86 409 | 91 490 |

| | | | | | | |
|----|----------------------|---------|---------|-----------|-----------|-----------|
| 9 | Surxondaryo viloyati | 38 829 | 41 879 | 40 781 | 27 291 | 36 280 |
| 10 | Sirdaryo viloyati | 20 254 | 21 660 | 23 669 | 24 435 | 24 286 |
| 11 | Toshkent viloyati | 60 492 | 68 944 | 78 495 | 81 215 | 86 668 |
| 12 | Farg'ona viloyati | 55 249 | 62 401 | 66 245 | 79 718 | 84 188 |
| 13 | Xorazm viloyati | 36 675 | 40 212 | 45 094 | 47 518 | 50 746 |
| 14 | Tosheknt shahri | 280 899 | 297 347 | 320 189 | 319 517 | 352 751 |
| | Respublika bo'yicha | 853 825 | 929 900 | 1 012 726 | 1 014 686 | 1 106 143 |

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy jamiyatni raqamlashtirish jarayoni ko'pgina sohalarda ortda qolayotgan bo'lsada, yuqorida ta'kidlab o'tilgan farmon va qonunlar natijasida bu kamchilik va muammolarga chek qo'yilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra 2019 va 2021 yillar davomida korxonalar va tashkilotlarda shaxsiy kompyuter (serverlardan tashqari) mavjudligini tahlil qiladigan bo'lsak, respublikamizning viloyatlar kesimidagi yillar bo'yicha o'sish sur'ati yuqorilab borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Toshkent shahrida joylashgan korxonalar va tashkilotlarda shaxsiy kompyuterlar mavjudligi 2020 yilda 319 517 donani tashkil etib, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan pasaygan. Biroq 2021-yilda 352 751 donani tashkil etib sezilarli darajada oshgan. Bunga sabab iqtisodiyotni raqamlashtirishda AKT lari bilan ta'minlashga katta miqdordagi investitsiyalar jalb qilinganligi bo'lib, 2021 -yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra bu sektorga qilgan investitsiyalar 11,8 trillion so'mga (1 milliard AQSH dollaridan ortiq) yetgan.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, respublika hududida joylashgan korxonalar va tashkilotlarda shaxsiy kompyuterlarning mavjudligi va bu texnik qurilmalarning internetga ulanish so'nngi yillarda oshib borgan. Bunga sabab hozirgi kunda jahon miqiyosida yangi zamonaviy kasblarning (frilanserlar, dasturchilar, traderlar, web-dizaynerlar va boshqalar) rivojlanayotganligi va davlatimiz tomonidan bunga katta e'tibor berilayotganligi O'zbekiston hududida IT-parklari tashkil etilishi va buning natijasida 300dan ortiq yangi kompaniyalar ochilishi sababli iqtisodiyotda raqamlashtirish va raqamli texnologiyalar bilan barcha soha sektorlarini ta'minlanmoqda.

Biroq yuqorida sanab o'tilgan turli xil loyihalarning amalga oshirilishi va ijobiy natijalarga erishganligidan tashqari, respublika hududlarining barcha qismida ham bu kabi sharoitlar yaratib berilmagan. Negaki, qishloq hududlarida internet aloqasi mavjud emasligi sababli AKT ga ehtiyoj kam va rivojlanish jihatdan ortda qolmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun nazarimizda mamlakatimizning chekka va olis qishloq hududlarini optik tolali internet tarmoqlari bilan ta'minlash lozim. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotda ommalashtirish uchun barcha

sohalarni yuqori sifatli va zamonaviy darajadagi axborot texnologiyalari bilan ta'minlash, yetuk mutaxassislarni sohaga keng jalb etish va faoliyat olib borayotgan shaxslarning ko'nikma va malakalarini muntazam oshirib borish lozim. Bu o'z navbatida mamlakatimizda bandlik muammosining yechilishiga hamda iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlashiga salmoqli darajada yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b.
2. <https://mc.uz/Ozbekistonda> 2021-yilda-43-7-mingta-korxonava-tashkilotlar-qurilishsohasida-faoliyat-yuritgan.
3. <https://stat.uz>- sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.
4. <https://mitc.uz/uz/news/2340>.
5. Shoqosim o'g'li, A. U., Rahimovna, T. O. R., Mamasiddiqovna, A. N., Mamasoliyevich, T. R., & Roxataliyevna, A. N. (2022). Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 1354-1365.
6. Ахмедова Нилуфар Мамасидиковна. (2023). ОСОБЕННОСТИ НЕАЛГОРИТМИЧЕСКИХ МЕТОДОВ И ИХ РОЛЬ В РЕШЕНИЕ ЗАДАЧ. *E Conference Zone*, 52–58. Retrieved from <http://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/2015>.